



МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА “ҲАЙОТ ХАВФСIZЛИГИ АСОСЛАРИ” МАШГ‘УЛОТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЕТИШДА ХОРИЈИЙ МАМЛАКАТЛАР ТАЈРИБАСИ

Abdullayeva G.A.

*Favqulodda vaziyatlar vazirligi Fuqaro muhofazasi instituti
katta o‘qituvchisi, dotsent*

Tayanch so‘zlar: xorijiy mamlakatlar tajribasi, “Maktabgacha yoshdagi bolalar xavfsizligining asoslari” dasturi, maktabgacha ta’lim tashkilotlari, maktabgacha ta’lim muassasalari, umumta’lim maktablarida ta’lim jarayoni.

Ключевые слова: опыт зарубежных стран, программа «Основы безопасности детей дошкольного возраста», дошкольные образовательные организации, дошкольные образовательные учреждения, образовательный процесс в общеобразовательных школах.

Key words: experience of foreign countries, program “Fundamentals of the safety of preschool children”, preschool educational organizations, preschool educational institutions, educational process in secondary schools.

Vatanimiz milliy davlatchiligi va iqtisodiy mustaqilligi, qudratli intellektual salohiyatining yuksak bo‘lishida siyosiy, huquqiy, ma’naviy va ma’rifiy yo‘nalishlarda olib borilayotgan keng qamrovli tadbirlar majmuasida, aholi va hududlarni turli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, inson xavfsizligi va salomatligini saqlash alohida o‘rin tutadi, shuning uchun ham bu soha milliy Davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Ko‘pgina davlatlarda olib borilayotgan izlanishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan hodisalarni oldindan o‘rganish, bashoratlash, uning negizida ogohlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, nafaqat noxush vaziyatlar keltiradigan iqtisodiy zararni tejab qolishga, balki insonlar ayniqsa yoshlar o‘rtasidagi shikastlanish ko‘rsatkichining pasayishiga olib keladi.

Dunyoning turli mamlakatlaridagi katta ko‘lamdagi tabiiy ofatlar va halokatlarning (zilzila, sunami, suv toshqini va h.k.) oqibatlarini bartaraf etish tajribasiga ko‘ra, ularning oqibatlarini yumshatishning yagona yechimi – bu aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilish tayyorgarligini oshirishdir.



Mutaxassislarning ta'kidlashicha, soha yo'nalishi bo'yicha qabul qilingan meyoriy-huquqiy hujjatlar talabini o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilmasligi, zilzila bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarda aholini to'g'ri harakat qilishga tayyorlash tizimining samarali faoliyat ko'rsatmasligi, rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini doimiy ravishda o'rganib amaliyotga qo'llashni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash va ularning bu boradagi ko'nikmalarini oshirish muhim vazifa hisoblanadi. Hozirda mavjud bo'lgan, aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, aholida favqulodda vaziyatlarda harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirishni yanada takomillashtirish maqsadida, bir qator xorijiy davlatlarning bu boradagi tajribalari o'rganildi.

Xususan, Rossiya Federatsiyasida aholini favqulodda vaziyatlarda muhofaza qilish sohasida tayyorlashni takomillashtirish maqsadida hukumatning 4 mart 2003 yildagi "Aholini va hududlarni tabiiy va texnogen tUSDagi favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish to'g'risida"gi qonuniga asosan aholini favqulodda vaziyatlardan to'g'ri harakat qilish bo'yicha tadbirlar amalga oshiriladi. Mazkur qonunga asosan, 1995 yil 16 yanvar kuni Rossiya Federatsiyasining "Rossiyada ogohlantirish va harakat qilish tizimini tashkil etish va rivojlantirish to'g'risida"gi 43-sonli qarori ishlab chiqilib, aholini o'qitish, davlat tashkilotlarining mutaxassislarini tayyorlash va favqulodda vaziyatlarda kuch va vositalarni shay holatda harakat qilish bo'yicha bandlar kiritilgan.

Shuningdek, Rossiya Federatsiyasining 1995 yil 24 iyuldagi 738-sonli qaroriga asosan, O'rta va maxsus ta'lim vazirligi majburiyatiga favqulodda vaziyatlarda aholini tayyorlash, metodik qo'llanmalar ishlab chiqish va tarqatish kiritildi. Keyinchalik 2002 yil 2 noyabdagi 841-sonli qaroriga asosan, fuqaro muhofazasida aholini o'qitish ishlarini kuchaytirish belgilab olindi. Qarorda ilmiy ommabop va o'quv filmlar yaratish, shuningdek axborot-tushintiruvchi eslatmalar, maqolalar, nashrlar tayyorlash va aholini keng qatlamlari orasida tarqatish masalalariga asosiy e'tibor qaratilgan. 1995 yili "Maktabgacha yoshdagi bolalar xavfsizligining asoslari" dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu dastur asosida bolalarni o'zini xavfsiz tutish qoidalariga o'rgatish yo'lga qo'yilgan. Boshlang'ich sinflarda xavfsizlik masalalari "Inson va atrofdaqi olam" yoki "Atrofimizdagi olam" kurslariga integrallashtirilgan, ya'ni asosiy o'quv rejasining variativ qismida olib boriladi.



2017 yilda “Hayot faoliyati xavfsizligi asoslari” fanini o‘qitish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Ushbu konsepsiya “ОБЖ” (Основы безопасности жизнедеятельности) mavzusini sifatli rivojlantirish va uning maqomini o‘zgartirish uchun sharoit yaratishga imkon beradi. “ОБЖ” mashg‘ulotlarining ta‘lim standartlari, dasturlari va mazmuni o‘zgartirildi. Ushbu fan pedagoglarining ish sifatini oshirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Maktabgacha ta‘lim muassasalari, umumta‘lim maktablarida ta‘lim jarayoni federal darajada ishlab chiqilgan va ta‘lim ish dasturlarini ishlab chiqish uchun asos sifatida taqdim etilgan dasturlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Qirg‘iziston Respublikasining “Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq tegishli vazirlik va idoralar tomonidan Qirg‘iziston Respublikasining maktabgacha ta‘lim muassasalari uchun “Hayot faoliyati xavfsizligi asoslari”, “ОБЖ” fanining o‘quv dasturlari ishlab chiqilgan.

Xalqaro tashkilotlar ko‘magida (YUNISEF, Aga-Xon fondi va boshqalar) o‘quv dasturlari, uslubiy tavsiyalar, o‘qituvchilar malakasini oshirish dasturi ishlab chiqildi.

Hozirgi kunda maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari uchun “ОБЖ” predmeti asosiy fanlardan biri hisoblanadi, tayyorlov guruhlarida mashg‘ulotlar tarkibiga integratsiyalash orqali o‘qitiladi.

Qozog‘iston Respublikasida aholini zilzila vaqtida harakat qilishda nodavlat sektorlaridan unumli foydalanishadi. Nodavlat-notijorat tashkilotlari tomonidan aholini favqulodda vaziyatlarga tayyorlashdagi faoliyati davlat tashkilotlari tomonidan qamrab olinmagan aholi qatlamlari orasiga kirish imkoniyatini bermogda. Qozog‘istonda “Qizil yarim oy” jamiyati tomonidan zilzila vaqtida to‘g‘ri harakat qilishga o‘rgatuvchi o‘quv kurslar, treninglar tashkil etilib, zilzila vaqtida oilaviy evakuatsiya rejasini tuzish, uy ichidagi xavfsiz joylarni aniqlash, binodan xavfsiz hududga chiqish qoidalari amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘rgatilmoqda.

Shuningdek, Qozog‘istonda Yaponiya mutaxassislarini jalb etgan holda “Aholini zilzilalarda to‘g‘ri harakat qilishi bo‘yicha” seminar-treninglar, brifinglar o‘tkazib borish yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, Qozog‘iston mutaxassislarini Yapon tajribasi bilan tanishtirilib boriladi.

Isroil davlatida, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining o‘quv rejalari xavfsiz hayot madaniyatini shakllantirish, favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tarbiyalanuvchilarni o‘qitish bo‘yicha maxsus fan kiritilgan.

Isroil Maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining tayyorlov guruhlari, umumiy o‘rta maktab o‘quvchilarda fakultativ soatlarda, shuningdek, umumiy ta‘lim fanlarini o‘rganish jarayonida xavfsizlik sohasida zarur bilim



olishga yo‘naltirilgan. Eng keng tarqalgan kurslar ko‘plab ta‘lim muassasalarida “Mudofaa”, “Xavfli harakatlar” ixtiyoriy kurslarida majburiydir. Bundan tashqari, bir qator muassasalarda “Yosh politsiyachi” to‘garagi faoliyati tashkil etilgan.

E‘tibor beradigan bo‘lsak, har bir muassasa o‘zi uchun tegishli kursni tanlaydi, xavfsizlik tizimlarini ishlab chiqish, loyihalash va o‘rnatish bilan shug‘ullanadigan kompaniya bilan shartnoma tuzadi, shuningdek doimiy xodimlarni tayyorlaydi. Kompaniya mutaxassislari muassasa ma‘muriyatini, bolalarni o‘qitadilar, shuningdek, bolalarni favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlaydi.

Isroil hukumati mamlakatning har bir fuqarosi bu yerdagi tinchlik, xotirjamlik va tartibni buzishga qaratilgan voqealar bilan bog‘liq har qanday kutilmagan hodisalarga tayyor bo‘lishi kerakligini tushunadi. Shuning uchun muassasalarda bunday holatlarga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha ba‘zi tadbirlar ko‘zda tutilgan.

Isroilda barcha muassasalar, birinchi navbatda, har qanday ekstremal sharoitlarda to‘g‘ri harakat qilish yosh avlodni o‘rgatish qurbonlarni oldini olish uchun, maxsus tadbirlar o‘tkaziladi. Maxsus psixolog tajribali terroristik harakatlardan so‘ng stressli holat va dipressiyani yengishga yordam berish uchun bolalarga dars beradi. Shunday qilib, malakali mutaxassislar bolalarga psixologik yordam ko‘rsatadilar.

Bundan tashqari, ta‘lim muassasalardagi mashg‘ulotlarda bombardimon boshlanishiga tezkor javob berish qobiliyatlari ishlab chiqilgan. Har qanday mashg‘ulotda har bir kishi uchun kutilmagan tarzda sirena signali berilganda barcha bolalar juda tartibli, intizomli va muntazam ravishda xonani tark etib, panagohga borishlari kerak bo‘ladi.

Polsha davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining ko‘pchiligida “Xavfsizlik ta‘lim” yo‘nalishi inson jamiyatida xavfsiz hayotga va ijtimoiy iyerarxiyadagi joyga inson sifatida tayyorlashga mo‘ljallangan. Dasturda aks ettirilgan o‘quv kursining asosiy maqsadi maktabgacha ta‘lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini xavfsizlik masalalari bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikmalarini oshirish va ekstremal vaziyatlarda ularning xatti-harakatlarini normallashtirishdir.

Olingan bilim va shakllangan ko‘nikmalar tarbiyalanuvchilari haqiqiy xavfli vaziyatda foydalanishlari mumkin. O‘quv dasturining muhim maqsadi tarbiyalanuvchilarni zamonaviy dunyoda tahdidlarni bilish, shaxsiy va global xavf-xatarlardan qochish yoki kamaytirish imkonini beradigan profilaktika choralarini ko‘rish odatini shakllantirishdir.



Yaponiyada zilzila sodir bo'lganda to'g'ri harakat qilishda asosan yoshlarga e'tibor qaratish tizimi samarali tashkil etilgan.

Ma'lumki, Yaponiya eng yuqori seysmik hududda joylashgan. Davlat hukumati zilzilada aholini to'g'ri harakat qilishga jiddiy yondoshib, favqulodda vaziyatlarda doim shay holatda turishni talab etadi.

Yaponiya uylarida har bir oila a'zolari uchun maxsus oyoq kiyim, xushtak, radioaloqa yoki quvvatlangan mobilaloqa, fonar, ichimlik suv saqlanib, zilzila sodir bo'lganda, singan predmetlarda oyoqlarni jarohatlamaslik uchun mazkur oyoq kiyimni kiyish, xushtak, radioaloqa yoki mobilaloqa orqali yordam chaqirish va fonardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berib boriladi.

Shuningdek, Kyoto va Kobe shaharlarining "Kelajak avlodni tabiiy ofatlardan muhofazalanishga o'rgatish" markazi tomonidan zilzila, suvda cho'kish, yong'in, kuchli shamol kabi holatlarda to'g'ri harakat qilishga o'rgatuvchi muzeylar, simulyatorlar, favqulodda hodisalarda foydalanish uchun mo'ljallangan maxsus kiyimlar va asbob-anjomlar namoyishlari tashkil etilgan.

Aholi o'zini qutqarish, o'zaro bir-birini qutqarish, o'zgani qutqarish yo'nalishlari bo'yicha jismoniy va psixologik jihatdan tayyorlanadi. Bunda, Ommaviy axborot vositalari o'quv metodik qo'llanmalardan asosiy vosita sifatida foydalaniladi. Asosiy e'tibor o'quvchilarga favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishni o'rganishga qaratilgan. Jumladan, har kuni soat 06:00-09:00 oralig'ida televideniya orqali zilzila, yong'in, sunami, yo'l transport xodisasi xavfini, tabiatga nisbatan munosabatni eslatuvchi va ularda qanday harakat qilish lozimligini o'rgatuvchi mazmunidagi multfilm, badiiy film, o'yinlar, mashg'ulotlar namoyish etib boriladi.



Yaponiya maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilar bilan o'tkazilayotgan amaliy mashg'ulotlar



Har bir prefektura Ta'lim boshqarmasi tomonidan maktabgacha, o'rta ta'lim, kollej, litsey va gimnaziya uchun mo'ljallangan o'quv qo'llanmalar ishlab chiqilgan. Masalan Xyogo prefektura Ta'lim boshqarmasi tomonidan har xil yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan Living for Tomorrow (Ertaga yashash) nomli o'quv qo'llanmasi ishlab chiqilgan. Mazkur o'quv qo'llanmada prefektura hududiga xos bo'lgan tabiiy ofatlar va ular sodir bo'lganda qanday yo'l tutish kerakligi yoritib berilgan.

Shuningdek, Yaponiyada animatsion 3D tizimidan foydalangan holda o'quv muassasalarida simulyatsion xonalar, poligon maydonlari va muzeylar tashkil etilgan.



Yaponiyadagi animatsion 3D tizimli simulyatsion xonalar

AQSH, Rossiya va Janubiy Koreya mamlakatlarida aholini favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishga tayyorlashda zamonaviy uslubiy baza, ko'rgazmali qurollar va imitatsiya vositalaridan foydalanib, har bir mashg'ulot shartli favqulodda vaziyatlarni sodir bo'lishi mumkin bo'lgan mashg'ulot xonalari (trenajyor)da olib boriladi.

Armaniston Respublikasida maktabgacha ta'lim muassasalarida xavfsizlikni ta'minlash "Xavfsizlik dasturi" ishlab chiqilgan bo'lib, unda muassasa xavfsizligini ta'minlanganlik darajalari bo'yicha barcha savollar kiritilgan. Shuningdek, bugungi kunda respublikadagi muassasalarda tarbiyalanuvchilarni turli baxtsiz hodisalarda to'g'ri harakat qilish, ayniqsa zilzila vaqtida oqilona harakatlanish qoidalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Seysmik jarayonlar faol bo'lgan Yaponiya, Korea, AQSH, Rossiya Federatsiyasi, Indoneziya va Qozog'iston Respublikasining tajribasini o'rganish natijalari asosan yoshlarni "O'zini, o'zaro bir-birini va o'zгани qutqarish" yo'nalishlari bo'yicha jismoniy va ruhiy jahatdan tayyorlashga, valontyorlarni jalb qilishga, o'quv kurslar tashkil etishga alohida e'tibor berilmoqda.



Indoneziya bog‘chalarida yangi “Rav-Gilit” yoki “Hamma guruhlar uchun” nomli dastur ishlab chiqilib, tarbiyalanuvchilar uchun Fuqaro muhofazasi bo‘yicha o‘quv kurslari tashkil etilgan.

Respublikamiz aholisini favqulodda vaziyatlarni oldini olish, ular yuzaga kelganda tezkor to‘g‘ri harakat qilishga o‘rgatish, sohadagi ishlarni yanada rivojlantirishga qaratilgan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2019 yil 9 sentabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 754-sonli Qarori bilan respublikamiz aholisining barcha qatlamlarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga o‘rgatish tartibini tizimli ravishda amalga oshirilishi belgilab berilgan.

Xususan, maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari - doimiy ravishda maktabgacha ta’limning maktabgacha ta’lim va tarbiya davlat standarti va o‘quv dasturlariga muvofiq ta’lim-tarbiya jarayonida muammoli-vaziyatli o‘yinlar va mashg‘ulotlarda amalga oshirilishi qayd etilgan.

Xulosa qilib aytganda, dunyoda turli tabiiy, texnogen

va ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlar soni tobora ortib borayotgan sharoitda, ularni bartaraf etishdan ko‘ra, favqulodda vaziyatlarni oldini olish borasida aholini tayyorgarligini oshirish, ularning favqulodda vaziyatlarda harakat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi «Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonuni. 2022 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 sentabrdagi “Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 754-sonli Qarori.
3. www.mchs.gov.uz
4. <http://www.bezopasnost.edu66.ru/>
5. <http://cityref.ru/>
6. <http://guestbook.userline.ru/>
7. <http://shkolne.shopbrowser.ru/>

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Hayot xavfsizligi asoslari” mashg‘ulotlarini tashkil etishda xorijiy mamlakatlar tajribasi o‘rganilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается опыт зарубежных стран по организации обучения «Основам безопасности жизнедеятельности» в дошкольных образовательных учреждениях.

SUMMARY

This article examines the experience of foreign countries in organizing training in “Basics of Life Safety” in preschool educational institutions.